

O'zbekistonlik qizlar nano sun'iy yo'ldoshni stratosferaga uchirdilar

Navoiy viloyati, 8 may 2022 yil – Bugun O'zbekistonning turli hududlaridan 20 dan ortiq qizlar, UniSat ta'lim (Uni – UNICEF, Sat – sun'iy yo'ldosh) dasturi ishtirokchilari stratosferaga o'zlari yasagan ultrazamonaviy nanosun'iy yo'ldoshni uchirdilar. O'zgidromet mutaxassislari ko'magida qizlar to'plangan meteorologik ma'lumotlarni tahlil qiladilar.

Navoiy viloyati o'zining mos landshafti, undagi ko'plab innovatsion va texnologik loyihalar amalga oshirilayotgani tufayli uchirish maydoni sifatida tanlandi. Uchirish aeronavigatsiya xizmatlari mutaxassislari nazorati ostida bo'lib o'tdi, chunki ko'rsatmalarga ko'ra, uchirish joyi ustida samolyotlar parvozi uchun osmonni "yopish" talab etiladi. Nano sun'iy yo'ldosh stratosferada taxminan 1 soat bo'ldi va 11 600 m balandlikka ko'tarildi.

Bundan avval 15-26 yoshdagi 188 nafar o'zbekistonlik qizlar kodlash, muhandislik va ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha 4 oylik onlayn kursni tamomladilar. 20 nafar eng yaxshi akademik natijalarga erishgan qizlar Qirg'iziston va Qozog'iston vakillari bo'lgan tengdoshlari bilan birgalikda Almati shahrida nanosun'iy yo'ldoshni yig'ish, uchirish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish bo'yicha 10 kunlik amaliy seminarda qatnashdilar.

"Innovatsiyalar va texnologiyalardan foydalanish yoshlarning imkoniyatlarini kengaytirishda muhim ahamiyatga ega. Qizlarni STEM bo'yicha qo'llab-quvvatlash ular har qanday sohada muvaffaqiyatga erishishlari mumkinligiga ishonchlarini oshirish uchun muhimdir. Bugun biz tarixiy lahzaning guvohi bo'lib turibmiz – 20 nafar qiz o'z ilmiy ishlanmalarini ilgari surdi va gender nuqtai nazaridan teng jamiyat qurish sari qadam tashladi," dedi UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade.

"Nano sun'iy yo'ldoshning uchirilishi va olinajak ma'lumotlarning tahlili qizlarimiz uchun muhim qadam bo'ldi, – deydi Innovatsion rivojlanish vaziri o'rinbosari Shahlo Turdiqulova. "Fan, texnologiya va ma'lumotlar tahlili sohasida karyera imkoniyatlari cheksizdir va biz O'zbekiston qizlarini STEM yo'nalishi bo'yicha kasb tanlashga, ilmiy izlanishlar va tajribalar o'tkazishga hamda o'z oldiga ulkan maqsadlar qo'yishdan qo'rqmaslikka chaqiramiz".

UNICEF, Tech4Impact NNT va O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligi barcha qizlarni kelajak haqidagi orzulariga erishish uchun raqamli imkoniyatlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashda qo'llab-quvvatlamogda.

«UniSat — shunchaki loyiha emas. Bu bilim. Bu insonlar. Bu rag'batlantirish,» dedi loyiha ishtirokchisi Diyora Daminova (17 yosh).

Boshqa qizlar ham UniSat Uzbekistan dasturiga a'zo bo'lishlari mumkin. Dasturning keyingi bosqichiga arizalarni qabul qilish 2022 yilning kuzida boshlanadi.

Ommaviy axborot vositalari murojaat qilishlari uchun kontaktlar:

Nazokat Abduqunduzova O'zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligi Matbuot kotibi Telefon: 99899 302 26 00 El.pochta: n.abduqunduzova@mininnovation.uz	Elena Selezneva Tech4Impact NNT Loyihalar bo'yicha menejer Telefon: 99890 989 72 57 El. pochta: info@tech4impact.uz
Inna Volfson UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi Yoshlar va o'smirlar rivojlanishi bo'yicha maslahatchi Tel. +998935055256 El.pochta: iwolfson@unicef.org	Nargiza Egamberdiyeva UNICEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha maslahatchi Telefon: 99893 380 34 19 El.pochta: negamberdieva@unicef.org

Dasturning rasmiy sayti: www.unisat.uz